

“Mahsulot qachon arzon bo‘ladi? Sharoit yaratsak” – Prezident Bektemir tumaniga keldi



Pandemiya tufayli vaqtincha to‘xtab qolgan korxonalar o‘z faoliyatini tiklay boshladi. Lekin ular yana to‘liq quvvatga chiqishi uchun vaqt va rag‘bat zarur. Prezident Shavkat Mirziyoyevning qator farmonlari va videosektor yig‘ilishlarida bu borada aniq vazifalar belgilanib, izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbari bugun Toshkent shahrining Bektemir tumaniga safarini boshlab, bu yerda bajarilayotgan ishlar, sanoat korxonalari faoliyati bilan tanishmoqda.

Prezident dastlab “Bektemir metall konstruksiyalari” mas‘uliyati cheklangan jamiyat zavodiga bordi.

Loyihaning umumiy qiymati 48 million dollar bo‘lib, 2018 yilda ishga tushirilgan. Korxonaga yiliga 65 ming tonna ruxlangan metall, 1 600 kilometr yo‘l to‘siqlari, 130 ming tonna payvandlangan quvur va 17 ming dona yoritish ustuni ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Metall konstruksiyalarini issiq haroratda ruxlash Italiyaning Bisol S.p.A. uskunasi, xalqaro meyorlar va sifat standartlari darajasida amalga oshirilmoqda. Bunday mahsulotlar chidamliligi, ko‘rimliligi va o‘rnatish jarayonida qulayligi bilan afzal. Shuningdek, bu yerda Xitoy, Janubiy Koreyadan keltirilgan zamonaviy texnologiyalar o‘rnatilgan.

Korxonada jami 375 nafar muhandis va ishchi mehnat qilmoqda.

Prezidentimiz ishlab chiqarish jarayonini ko‘zdan kechirib, mutasaddilarga qo‘shimcha ko‘rsatmalar berdi.



- Bu texnologiyalar ham, mahsulotlar ham yaxshi. Lekin har dam rivojlanishni o‘ylash kerak. Arzon, xavfsiz

va sifatli konstruksiyalar ishlab chiqarib, korxonaning qurilish industriyasidagi o'rnini kengaytirish zarur. Mahsulot qachon arzon bo'ladi? Sharoit yaratsak, - dedi Shavkat Mirziyoyev.



Bunga erishish uchun loyihalashtiruvchi guruh tuzish, Yevropa mamlakatlari, xususan, Germaniya tajribasi asosida korxonani sanoat klasteriga aylantirish muhimligi ta'kidlandi.


Malakali mutaxassislar tayyorlash bo'yicha topshiriqlar berildi.

Davlatimiz rahbarining Bektemir tumaniga safari davom etmoqda.





© Respublikasi Prezidentining
MATBUOI XIZMATI





© Respublikasi Prezidentining
MATBUOI XIZMATI




Ўзбекистон Республикаси Президентининг
MATBUOT XIZMATI



Ўзбекистон Республикаси Президентининг
MATBUOT XIZMATI







Manba

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
МАТБУОТ ХИЗМАТИ